



YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA PRAGMATIK YONDASHUVNING
O'RNINI VA AHAMIYATI

Rizayeva Robiya G'iyosiddin qizi

ToshDO'TA universiteti 4-bosqich talabasi

rizayevrobiya@9.gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada yozma nutqni rivojlantirish jarayonida pragmatik yondashuvning o'rnini va ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Unda o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda til birliklaridan maqsadga muvofiq, vaziyatga mos hamda kommunikativ niyat asosida foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Pragmatik yondashuvning mazmuni, uning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va samaradorligi misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: pragmatika, metodika, yondashuv, yozma nutq, metodlar, nutq akti.

Annotation

In this article, the role and importance of the pragmatic approach in the process of developing written speech is analyzed from a scientific and pedagogical point of view. In it, the need to use language units in the form of students' written speech is justified, appropriate to the situation and based on communicative intent. The content of the pragmatic approach, its possibilities and effectiveness in the development of written speech competence are explained through examples.

Keywords: pragmatics, methodology, approach, written speech, methods, speech act.

Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilish, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda yangilangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida ona tilining to'rt asosiy lug'aviy malakasini – tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, barcha fanlarni, shuningdek, ba'zi sohalarni puxta o'zlashtirish, o'rganish uchun yozma nutq ko'nikmasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv davrida insonning muvaffaqiyati uning axborot yetkaza olish qobiliyatiga bog'liq. O'quvchilar turli ko'rinishdagi matnlarni (muhokama matni, esse va hokazolar) yarata olish orqali zamonaviy dunyoning murakkab masalalarini hal etishga munosabat bildirish va shu kabi masalalarga yechim topa olish bilim va ko'nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, yozma nutq ko'nikmasi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, nutq madaniyati (shevalardan holi), ijodiy yondashuv va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda yozma nutq rivoji va matn yaratish masalasi o'rganilgan bo'lsa-da (masalan, H. Ne'matov, M. Qodirov, N. Mahmudov, T. Ziyodova, K. Mavlonova ishlarida), pragmatik yondashuvga asoslangan maxsus metodika yetarli emas. Shu sababli, ushbu tadqiqot dolzarb hisoblanadi. O'quvchilarning pragmatik yondashuv asosida yozma nutqini



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



rivojlantirish yo‘nalishida ilmiy ish olib brogan olimlarning asosiy qismini xorij tilshunos olimlari tashkil etadi.

Ta‘lim amaliyotida kompetentlik nuqtayi nazaridan pragmatik yondashuv uzoq davr ta‘lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim berishning yetakchi mavqeda bo‘lib kelgani bois amaliy ko‘nikmalarning shakllanmay qolishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarga barham beradi. “Bunda an‘anaviy ta‘limda ustun bo‘lgan **“bilish paradigmasi”** o‘rniga **“bilimlardan muammoli vaziyatlarda o‘rinli foydalanish** paradigmasi ustunlik qilmoqda”- deyiladi A. Nurmanov va G. Ziyodullayevning “O‘quvchilarning til komponentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari” nomli maqolasida.⁴⁸ Ilmiy tadqiqotlardagi fikrlarga ko‘ra, pragmatik yondashuvning nutq aktlari deb ataluvchi bir jihatini o‘rganishni dastlab John L. Ostin ilgari surgan. Keyinchalik John Searle tomonidan takomillashtirildi. John L. Ostin “How to Do Things with Words” asarida nutqiy aktlar nazariyasini taqdim etdi va olim nutq aktini faqatgina gapning ma‘nosi emas, balki uning nutq vaziyatidagi maqsadi va ta‘siri bilan birgalikda o‘rganish kerakligini ta‘kidlaydi.

Matn yaratish ko‘nikmasi va yozma nutqni rivojlantirish borasida M. Rixsiyeva, D. Toshxo‘jayeva, N. Bekniyozova,⁴⁹ T. Ziyodovalarning metodik ishlari, badiiy matni adabiyot bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish K. Mavlonova, ona tili ta‘limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalalari G‘. Hamroyevning tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan.⁵⁰

Xorij olimlaridan D. Alvermann, P. Boothly, B. Armbruster, T. Anderson, J. Meyer, R. Bracewell, M. Scardamalia matn tuzilishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Yozma nutqni rivojlantirishda pragmatik yondashuvning o‘rni va ahamiyati quyidagicha izohlanadi:

Yo‘nalish	Yondashuv o‘rni	Yondashuv ahamiyati
Maqsadga yo‘naltirilganlik	O‘quvchi yozma nutqni aniq kommunikativ maqsad asosida tuzadi	Matn mazmuni aniq va tushunarli bo‘ladi.
Kontekstni hisobga olish	Vaziyat, muhit va adresat (tinglovchi) e‘tiborga olinadi	Nutq moslashuvchan va samarali
Til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish	So‘z, ibora va gaplar vaziyatga mos tanlanadi	Nutq madaniyati
Muloqotga yo‘naltirilganlik	Yozma nutq real kommunikatsiya vositasi sifatida qaraladi.	O‘quvchi fikrini erkin ifodalaydi.

⁴⁸ Yusupova T. Til ta‘limida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun va mohiyati. Filologiya va pedagogika jurnali. 2026-yil 2-son.

⁴⁹ Bekniyazova N. I. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatish metodikasi. Monografiya. - T., 2012.

⁵⁰ Hamroyev G‘. Ona tili ta‘limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. (DSc). Dissertatsiya. – Toshkent, 2022.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	O'quvchi matnni tahlil qiladi va baholaydi.	Mustaqil fikrlash shakllanadi.
Nutq strategiyalarini qo'llash	Rejalashtirish, tuzish va tahrirlash bosqichlari amalga oshiriladi.	Yozma ish sifati oshadi.
Adresatga moslashish	Matn o'quvchi darajasiga va ehtiyojiga mos yoziladi.	Ta'sirchanlik va tushunarlilik kuchayadi.
Ijtimoiy-madaniy moslik	Nutqda odob, axloq, madaniyat va milliy xususiyatlar aks etadi.	Nutq etikasi rivojlanadi.

O'quvchilarining yozma nutqini pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish – ya'ni o'quvchini faqat grammatik jihatdan to'g'ri yozishga emas, balki mazmunni aniq, maqsadga muvofiq va vaziyatga mos ifodalashga o'rgatishdir. Bunda turli samarali metodlardan foydalanish mumkin. Jumladan, vaziyatli yozma topshiriqlar orqali o'quvchilarga real hayotga yaqin sharoitlar yaratiladi: masalan, do'stiga uzr xati yozish, o'qituvchiga ariza yozish yoki ijtimoiy tarmoqqa post tayyorlash. Bu usul o'quvchiga kimga va qanday maqsadda yozayotganini anglashga yordam beradi. Shuningdek, rolga kirib yozish metodida o'quvchilar ma'lum bir rolni qabul qilib, shu nuqtayi nazardan matn yaratadilar. Masalan, jurnalist sifatida voqea haqida maqola yozish yoki ota-ona rolida farzandiga maslahat berish orqali ular nutqni adresatga moslashtirishni o'rganadilar. Dialogni yozma shaklga o'tkazish esa og'zaki nutqni yozma ko'rinishga keltirishni nazarda tutadi, bu orqali o'quvchilar uslubiy farqlarni anglay boshlaydilar. Matnni qayta ishlash, ya'ni transformatsiya metodi orqali berilgan matnni qisqartirish, kengaytirish yoki rasmiy uslubga o'tkazish kabi topshiriqlar bajariladi. Bu o'quvchilarning moslashuvchan fikrlashini va pragmatik kompetensiyasini rivojlantiradi. Maqsadli yozish metodida esa yozishdan oldin: 1) “Kim uchun yozilmoqda?”; 2) “Nima maqsadda yozilmoqda?”; 3) “Qanday ta'sir ko'rsatish kerak?” kabi savollar qo'yiladi.

Bu esa yozuvni aniq yo'nalishga soladi. Tahlil va muhokama metodida yaxshi va sust yozilgan matnlar taqqoslanib, ularning samaradorligi muhokama qilinadi. Bu jarayon o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Ko'p bosqichli yozish metodida esa yozish jarayoni reja tuzish, qoralama yozish, tahrirlash va yakuniy variantni tayyorlash kabi bosqichlarda tashkil etiladi, natijada o'quvchi yozishni tizimli jarayon sifatida o'zlashtiradi.

Pragmatik kompetensiya (yondashuv) – tildan turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri foydalanish qobiliyatini ifodalovchi yondashuv. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, quyidagilar pragmatik kompetensiyani tashkil qiladi.

1. Nutq aktlari: 1. Illokutsion akt; 2. Perlokutsion akt; 3. Lokutsion akt.
2. Xushmuomalalik strategiyalari;
3. Suhbatdagi kinoya;
4. Diskurs (nutqni boshqarish).





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yozma nutq yaratish har bir davr uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida matn yaratish haqida Abulqosim az-Zamaxshariyning “...matn – shaxsning til imkoniyatlaridan foydalana olish mahoratini aniqlash mezonini” degan tavsifi keltirilgan bo‘lib, bu eng qadimgi va mukammal tavsiflardan biridir. Pragmatik yondashuv asosida yozma nutqni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. 1. Qiyosiy tahlil. 2. Vaziyatli. 3. Yozma topshiriqlar. 4. Xat yozish (taklif xati). 5. “Blog post” yozish. 6. Rasmi topshiriqlar. 7. “FRESH”. 8. “O‘yla, gapir, yoz”. 9. “Transformatsiya” (qayta ishlash) kabi metodlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova T. Til ta’limida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun va mohiyati. Filologiya va pedagogika jurnali. 2026-yil 2-son.
2. Bekniyazova N. I. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatish metodikasi. Monografiya. - T., 2012.
3. Hamroyev G‘. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. (DSc). Dissertatsiya. – Toshkent, 2022.
4. A. Farobiy “Fozil odamlar shahri”. 1991. 140b.

